

Наманган муҳандислик-педагогика институти

Ilk diniy tasavvurlarning vujudga kelishi

Bajardi: X.Muxiddinova

REJA:

1.Diniy tasavvurlarning vujudga kelishi

2.Animizm, Totemizm, Fetishizm

3.Dinlarning odamlar orasida tarqalishi

Mehnat faoliyati, tevarak olam haqidagi to'plangan bilimlar asta-sekin insonning fikrlash qobiliyati va tafakkurini o'zgartirib yubordi. Odamlar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan hodisalar haqida o'ylay boshladi: kun bilan tun , yil fasllarining almashinuvi , vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam fikrini o'ziga tortgan. Ana shu hodisalarni tushuntirib berish qo'lidan kelmagan inson momoaqaldir oq , yashin, shamol, yomg'ir kabi tabiat kuchlariga sig'ina boshladi.

Bora- bora eng qadimgi odamlarda insin vafot etgandan keyin yashahsni davom ettiradigan o'zga bir olamga ketadi deganaqidaga ishonch paydo bo'ldi. Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e'tiqod fanda animism nomini olgan . Yil fasllarining almashinuvi , momaqalldiroq bo'ronni qadimgi odamlar ruh mujassamlashgan tabiat kuchlari harakati deb tushuntirganlar.

Eng qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yohud balo- qazoni bartaraf etishiga ham e'tiqod qilganlar, bu e'tiqod fetishizm nomini olgan so'nggi paleolitga oid bo'lgan qoya rasmlarining topilishi eng qadimgi odamlarda diniy e'tiqodlat bo'lgani to'g'risidagi isbotlardan biridir. Qoyatosh rasmlaridan eng qadimiylari Ispaniyadagi Altamir va Boshqirdistondagi Kapova g'orlaridan topilgan. Diniy e'tiqodlar kurtaklari va va marhumlar ko'milgan eng qadimgi qabrlar o'rta paleolit davrida vujudga kelgan.

ANIMIZM - (lotincha anima - jon, ruh) - jon va ruhlar borligiga ishonish. Ibtidoiy davrda paydo bolgan. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchlariga qarshi kurashda ojizlik qilgan, hayotdagi turli hodisalar (tush, gallyutsinatsiya, va hokazo)ni tushunmagan. Ruhlar odamlar hayotiga, turmushiga tasir qiladi deb tasavvur qilingan. Shu sababli zarur paytlarda ularga qurbonliklar qilganlar.

TOTEMIZM (Shimoliy Amerika indeyslarining ojibve qabilasi tilidagi «ototem» - «uning urug'i» so'zidan) — ibtidoiy diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan e'tiqodga asoslanadi. Hayvonlar, o'simliklar, jonsiz predmetlar totem hisoblangan.

Totemlar (ko`pincha hayvonlar) ov qilinmagan, o`ldirilmagan, go`shti yeyilmagan, ular go`yo kishilarning qudratli himoyachisi hisoblangan. Qabila, urug` har bir a`zosining hayoti va farovonligi totemga bog`liq deb qaralgan. Ular o`z totemini qarindoshi, akasi, otasi, do`sti deb hisoblagan. Har bir qabila, urug` o`z totemining nomi bilan atalgan. Totemistik e`tiqod va marosimlar muayyan ko`rinishda ko`p xalqlarda, ayniqsa, Avstraliyadagi qabilalarda saqlanib qolgan.

FITESHIZM (portugalcha fetico, fransuzcha fetiche - sehrli narsa, tumor) - g`ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar - fetishlarga sig`inish. Sig`inish obyektlari, yani fetishlar - tosh, tayoq, ko`zmunchoq, tumor va har qanday buyum bo`lishi mumkin. Fiteshizm dinining qadimgi unsurlaridan biri. Barcha ibtidoiy xalqlarda bo`lgan.

KOHINLAR – qadimda diniy marosimlarni olib borgan, xudolar va odamlar o‘rtasida vositachi hamda qurbonlik bag‘ishlaydigan ruhoniylar.

RIGVEDA - Qadimgi Hindiston yozma adabiyotining qadimgi yodgorligi – Vedalarning bir qismi. Vedalar 4 ta qismdan: “Rigveda” (qasida, madhiya, duolar to`plami), “Samaveda” (qo`shiqlar to`plami), “Ayurveda” yoki “Yajurveda” (qurbonlik qilish yo`llari), “Atharvaveda” (sehrli duolar to`plami) yetib kelgan.

Vedalar ichida eng qadimgisi bo`lmish Rigveda 10 kitob (mandala)dan iborat. Bunda tabiatdagi narsa va hodisalar ilohiy kuchlar sifatida gavdalantirilib, ular sharafiga qo`shiqlar, madhiyalar, to`qilgan, ularga qurbonliklar keltirilgan.

E'tiboringiz uchun rahmat